

AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSINING AHAMIYATI VA UNI IJRO ETILISHIDA PROBATSIIYA XIZMATINING ROLI

Raimova Diyora

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15493422>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning mazmun-mohiyati, uning huquqiy-me'yoriy asoslari va amaliy qo'llanish tartibi tahlil qilindi. Ushbu jazo turining ahamiyati, jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda mehnatga jalb qilish orqali uni tarbiyalash, qayta ijtimoiylashtirish va reabilitatsiya qilishdagi o'rnini ochib berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyati doirasida ushbu jazoning ijro etilishidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Axloq tuzatish ishlari, probatsiya xizmati, jinoyat, jazo, reabilitatsiya.

Аннотация: В данной тезисной работе рассмотрена сущность наказания в виде исправительных работ, его правовые и нормативные основы, а также практика применения. Раскрыто значение данного вида наказания в процессе исправления, ресоциализации и реабилитации осужденных посредством привлечения их к общественно полезному труду без изоляции от общества. Кроме того, проанализированы существующие проблемы исполнения этого наказания в рамках деятельности службы пробации Республики Узбекистан и предложены пути их устранения.

Ключевые слова: Исправительные работы, служба пробации, преступление, наказание, реабилитация.

Abstract: This thesis analyzes the essence of correctional labor as a form of punishment, its legal and regulatory framework, and practical application. The study highlights the importance of this type of punishment in rehabilitating and socially reintegrating offenders by engaging them in socially beneficial labor without isolating them from society. Additionally, the paper examines existing challenges in the implementation of this punishment within the activities of the Probation Service of the Republic of Uzbekistan and proposes solutions to overcome these issues.

Keywords: Correctional labor, probation service, crime, punishment, rehabilitation.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzar shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirishda jinoyatga nisbatan belgilangan jazolar muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Jamiyatimizda korrupsiya,

turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur". Ushbu jazolar orasida axloq tuzatish ishlari o'zining tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi – bu sud hukmiga ko'ra, aybdor shaxsni o'zining asosiy ish joyida yoki davlat tomonidan belgilanadigan mehnat faoliyati doirasida ishlashga majburan jalb qilishdan iborat bo'lgan, ish haqining muayyan qismini davlat daromadiga ushlab qolgan holda amalga oshiriladigan jazo turidir. Sud amaliyotida axloq tuzatish ishlari jazosi jinoyatchi shaxslarga nisbatan ko'p qo'llaniladigan jinoiy jazo turlaridan biridir. Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo sudning hukmiga muvofiq, mahkumning o'z ish joyida yoki Probatsiya xizmati tomonidan belgilab berilgan boshqa joylarda o'taladi. Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi Probatsiya xizmati zimmasiga yuklanadi.

Probatsiya xizmati mahkumni aholi bandligiga ko'maklashish markazlari orqali yo'llanma berish asosida ishga joylashtiradi. Normativ-huquqiy asos qilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-fevraldagi "Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini keltirish mumkin. Ushbu 84-son qarorining 2-ilovasiga muvofiq, mahkumlarni ish bilan ta'minlash, ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'rgatish, kasbga o'rgatish vaqtida belgilangan tartibda subsidiya berish, mahkumlar uchun bo'sh ish o'rinlari yarmarkasini tashkil etish, haq to'lanadigan jamoat va mavsumiy ishlarga jalb etish choralari ko'rish aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining vazifasi hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, shunga qaramay, ushbu jazo turining ijrosida ayrim muammolar mavjud:

- Mahkumlarni ish bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar;
- Ish beruvchilarning ushbu jazoni o'tayotgan shaxslarni qabul qilishga tayyor emasligi;
- Probatsiya xodimlari sonining yetishmasligi;
- Tashkilotlar bilan hamkorlikning sustligi;
- Jazo ijrosining yetarlicha monitoring qilinmasligi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, axloq tuzatish ishlari jazosini samarali amalga oshirish uchun maxsus nazorat organlari, ish beruvchilar bilan ijtimoiy sheriklik tizimi, mahkumlar uchun kasbiy tayyorgarlik dasturlari va psixologik

yordam mexanizmlari zarur. O'zbekiston sharoitida ham bu tajribalarni moslashtirish orqali ushbu jazo ijrosini yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Ish beruvchilar bilan ijtimoiy sheriklik asosida maxsus dasturlar ishlab chiqish;
- Probatsiya xizmatining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish;
- Axloq tuzatish ishlari bilan bog'liq sud amaliyotini tahlil qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- Mahkumlarning ijtimoiy va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etish.

Xorijiy davlatlar jinoyat-ijroiya qonunchiligida axloq tuzatish ishlari jazosining o'talishini nazorat qiluvchi organlar ham turlicha belgilanganligini kuzatish mumkin. Masalan, Ozarbayjonda jazoning mahkum tomonidan o'talishi - sud ijrochisi, Ukrainada axloq tuzatish ishlari jazosining nazorati - probatsiya organi, Rossiya Federatsiyasi, Belarussiya, Armaniston, Qozog'iston Respublikalarida esa - jazoni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab berilgan .

Xulosa qilib aytganda, mazkur jazo turi yengilroq toifadagi jinoyatlar uchun qo'llanilsada, u jinoyatchiga nisbatan ijtimoiy foydali mehnat orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, uni mehnat jamoasida nazorat qilish, shu orqali uning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. Ruziyev I. Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida axloq tuzatish ishlari jazosining tartibga solinishi // Общество и инновации. 2021-Т.2.-№ 3/5
4. Azizov Z. Probatsiya xizmati faoliyatida xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti // Huquq va burch. – 2022. – №6. – B. 31–34.
5. Xojimatov T. Jazo turlari va ularni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi // Jamiyat va boshqaruv. – 2023. – №3. – B. 45–50.

